

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Nodira Nabiyevna Safixodjayeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi

MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY-TEXNIK SHAROITLAR

For citation: Nodira N. Safikhodjaeva. THE MATERIAL AND TECHNICAL CONDITIONS CREATED IN “MEHRIBONLIK” ORPHANAGES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807300>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif mustaqillik yillarida O‘zbekistonda, xususan, Farg‘ona vodiysidagi “Mehribonlik” uylarining moddiy-texnik axvoli, ularda tarbiyalanotgan bolalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, o‘tgan yillar davomida yuzaga kelgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha davlatning amalga oshirgan siyosati haqida fikr-mulohaza yuritgan. Shuningdek, “Mehribonlik” uylarida moddiy-texnik sharoitning qanchalik yaxshi bo‘lishi unda tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar hayotidagi ahamiyati to‘g‘risidagi mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, “Mehribonlik” uyi, yetim bolalar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola, Andijon, Namangan, Farg‘ona.

Сафиходжаева Нодира Набиевна,
Преподаватель кафедры «История Узбекистана»
Узбекского государственного университета мировых языков

МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ, СОЗДАННЫЕ В ДОМАХ «МЕХРИБОНЛИК» В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор рассматривает материально-техническое состояние домов «Мехрибонлик» в Узбекистане в годы независимости, в частности в Ферганской долине, условия, созданные для воспитанников, проблемы, возникшие за прошедшие годы, а также государственную политику, направленную на их устранение. Также приводятся размышления о значении уровня материально-технического обеспечения в домах «Мехрибонлик» для жизни детей-сирот и детей, лишённых родительской опеки, воспитывающихся в этих учреждениях.

Ключевые слова: Узбекистан, дом «Мехрибонлик», дети-сироты, дети, лишённые родительской опеки, Андижан, Наманган, Фергана

Nodira N. Safikhodjaeva,Lecturer at the Department of "History of Uzbekistan",
Uzbekistan State World Languages University**THE MATERIAL AND TECHNICAL CONDITIONS CREATED IN
"MEHRIBONLIK" ORPHANAGES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE****ABSTRACT**

In this article, the author discusses the material and technical condition of "Mehribonlik" orphanages in Uzbekistan during the years of independence, particularly in the Fergana Valley, the conditions created for the children raised there, the problems that have arisen over the years, as well as the state policy implemented to address them.

The article also presents reflections on the importance of good material and technical conditions in "Mehribonlik" orphanages for the lives of orphans and children deprived of parental care who are being raised in these institutions.

Index Terms: Uzbekistan, "Mehribonlik" orphanage, orphans, child deprived of parental care, Andijan, Namangan, Fergana.

1. Dolzarbligi:

Dunyo mamalakatlari aholining muhim tarkibiy qismi hisoblangan bolalarga katta g'amxo'rlik va e'tibor qaratib keladi. Chunki bolalar har bir jamiyatning kelajagini belgilovchi eng asosiy boylik hisoblanadi. Bolalarning farovon hayot kechirishi, tarbiyasi, ta'lim olishi davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifalari sirasiga kiradi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, davlatning alohida g'amxo'rlikiga, mehriqa muhtoj bolalar uchun qulay va xavfsiz bo'lgan muhitni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. "Mehribonlik" uylarining boshqa davlat muassasalaridan, masalan ta'lim tizimidan bir xil va farqli jihatlari mavjud. Xususan, barcha ta'lim muassasalari uchun moddiy-texnik bazaning mustahkamligi ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir qiladi. "Mehribonlik" uylarida esa tarbiyalanuvchilarning bolaning kelgusi hayotini belgilab beruvchi muhim omil bo'lishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Chunki "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilari uchun ushbu muassasa nafaqat ta'lim va tarbiya maskani, shuningdek, ularning voyaga yetgunlariga qadar yashovchi turar joy vazifasini ham bajaradi. Shu boisdan, "Mehribonlik" uylari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan holatga keltirish, yashash sharoitlari va ta'lim sifatini oshirish maqsadida davlat tomonidan bir qator choratadbirlar ko'rib kelindi. Bu borada 2021-yil 28-iyul kuni Prezident Sh. Mirziyoyev Toshkent shahridagi 21-son "Mehribonlik" uyiga tashrifi chog'ida bu muassasada yaratilgan shart-sharoitlarni ko'zdan kechirib, olib borilayotgan ishlarni yanada yaxshilash masalasiga to'xtalib, "bu muassasalarning moddiy homiysi bor, ma'naviy homiy kerak. Bu ham savob, ham kerakli ishdir"[1], deya juda o'rinli ta'kidlagan edi.

"Mehribonlik" uylarida zamonaviy sharoitlarni yaratish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash orqali faqatgina tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiyasi sifatini oshiribgina qolmasdan, balki ularning kelgusidagi hayotga ijobiy ijtimoiylashuvini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi, xususan Farg'ona vodiysidagi mavjud "Mehribonlik" uylari faoliyati masalasiga oid olib borilgan tadqiqotlarda mazkur uylarda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-ma'naviy islohotlardagi ishtiroki, global muammolarga doir davlat siyosatida ularning o'rni muammolari hujjatli manbalar asosida ochib berilgan. Xususan, tarixchi Sh. Raxmatullayev[2], T. Xatamov[3], O. Topildiyev[4], H. O'. Xoshimov[5], A. Nurmatov[6] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan ilmiy ishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarda "Mehribonlik" uylari faoliyatiga doir maqola, qo'llanma va to'plamlar ham mavjud. Ammo, Farg'ona vodiysidagi "Mehribonlik" uylari tarixi va ular faoliyatining takomillashtirilishi, uning huquqiy himoya qilinishi, moddiy-texnik bazasining

mustahkamlanishi, ular uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi kabi masalalar tarixiy nuqtai nazardan o'rganilmagan. Shu boisdan ham, mazkur masalalarni o'z ichiga qamrab olgan mavzuni ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

3. Tadqiqot natijalari:

“Mehribonlik” uylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun davlat har yili byudjet mablag'lari ajratadi. Bundan tashqari, “Mehribonlik” uylarining qo'shimcha mablag'lari quyidagilardan shakllananishi ko'zda tutiladi:

- aholidan, xizmat ko'rsatishdan;
- xayriya va badallardan;
- bo'sh turgan yordamchi xonalar, inshootlar, uskunalarni ijaraga berishdan;
- boshqa turli tushumlardan[7].

Ushbu mablag'lar qo'shimcha manbalardan olingan mablag'lar hisoblanib, yil davomida muassasaning xarajatlari uchun undan mustaqil ravishda foydalanadi. Yil oxirida hosil bo'ladigan pul mablag'lari qoldiqlari, olingan manbalaridan qat'iy nazar, olib qo'yilmaydi va “Mehribonlik” uyi xohishiga binoan, qonun hujjatlariga muvofiq sarflanadi[8].

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillarida “Mehribonlik” uylari, ya'ni bolalar uylarining moddiy-texnik bazasi, ularning ahvoli qoniqarli holatda emas edi. Chunki, mustaqillikning dastlabki yillarida, 1991–2000-yillarda, ushbu muassasalarda ayrim muammolar mavjud edi. O'zbekistonda bu davrda iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy sohadagi qiyinchiliklar hamda moliyaviy resurslarning cheklanishi yuz berayotgan jarayon edi. Bu vaqtga kelib “Mehribonlik” uylarining infratuzilmasi ancha eskirgan, yetarli darajada rivojlanmagan edi, bu esa “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilari va ularning tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlashda qiyinchiliklar tug'dirdi.

1993-yilda Bolalar uylari va maktab-internatlarini ahvolini o'rganish bo'yicha moliya organlari tomonidan 16-bolalar uyi va 71-internat maktabining xarajatlar smetalarini rejalashtirish va amalga oshirishning to'g'riligini tekshirish o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Prezident farmonlarining bajarilishi va maoshlarning oshirilishi barcha joylarda o'z vaqtida amalga oshirilgan. Biroq, yagona tarif tizimiga kirishda va bosqichma-bosqich maoshlarning oshirilishida, lavozimlar va maosh miqdori belgilanishida noto'g'ri tizimlar va lavozimlar belgilandi, natijada, maoshlar to'lanmagan yoki ortiqcha to'langan holatlar kuzatildi. Maoshlar bilan bir qatorda, oziq-ovqat masalalari, ayniqsa, bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining me'yorlari to'g'ri qo'llanilishi ham tekshirilgan. 1993-yilning birinchi yarmida oziq-ovqat xarajatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, bolalar uylarida va internat maktablarida tasdiqlangan normaga qarshi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi doimiy ravishda kuzatilgan. Misol uchun, birinchi yilda tekshirilgan muassasalarda bolalar uchun quyidagi mahsulotlar yetishmagan: sabzavotlar – 220 tonna, kartoshka – 123,2 tonna, meva – 404,8 tonna, sariyog' – 25,6 tonna, sut – 248,2 ming litr, tuxum – 378,8 ming dona, tvorog – 78,5 tonna, go'sht – 22,6 tonna, baliq – 156,5 tonna. Shu bilan birga, tasdiqlangan normaga qarshi ko'proq sarflangan mahsulotlar ham mavjud: non – 190,1 tonna, yorma, loviya va makaron mahsulotlari – 68,7 tonna, o'simlik yog'i – 6,0 tonna, smetana – 2,1 tonnadan iborat bo'lgan.

Bu kabi holatlar respublikaning barcha hududlaridagi bolalar uylarida uchragan. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi, mahsulotlarining qoldiqlarini tekshirish paytida, Hamza nomidagi bolalar uyi, Andijon shahridagi 13-sonli yordamchi internat maktabi, Samarqand viloyatidagi Urgut sanatoriy-o'rmon maktabi, Surxondaryo viloyatidagi Boysun bolalar uyi, Namangan viloyatidagi internat maktablari, Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi 92-sonli internat maktabida aniqlandi.

Andijon shahridagi 2-sonli bolalar uyida mahsulotlar qoldiqlarini tekshirishda, omborchilar aybi bilan mahsulotlarning yetishmasligi aniqlangan. Bunda jami 950 rub. 53 kop. qiymatidagi mahsulotlar yetishmasligi (1,2 kg bug'doy yormasi, 1,3 kg mol yog'i, 0,9 kg vermishel) va 5214 rub. qiymatidagi ortiqcha mahsulotlar (3,6 kg osh yog'i, 3,1 kg smetana, 0,33 kg sariyog') kabi holatlar mavjudligi aniqlangan.

Shuningdek, bolalar uchun mo'ljallangan yumshoq inventar va kiyim-kechak bo'yicha belgilangan normaga nisbatan yetarli ta'minot mavjud emasligi aniqlandi. Misol uchun, barcha o'g'il bolalarga maktab formasi normasi 19289 ta bo'lsa, mavjudligi 12512 ta yoki 6777 ta kam. Qizlar uchun maktab formasi 1654 ta kam edi. Maykalar, sport kostyumlarining ta'minoti ham yetarli emasligi (maykalar – norma 16402, amalda 13673, sport kostyumlar – norma 3139, amalda 1119) aniqlangan.

Shu bilan bir qatorda, belgilangan normadan ortiqcha mahsulotlar ham mavjud bo'lib, bu asosan bolalar uylariga va internat maktablariga homiyilar tomonidan yoki gumanitar yordam sifatida kelgan. Tekshiruvlar davomida, 1993-yil 1-iyul holatiga ko'ra, bolalar uylarida va internat maktablarida 11627,4 ming rubllik 83337 dona kiyim-kechak va yumshoq inventar mavjudligi, shundan 1505 dona 677,6 ming rublga teng qiymatdagi kiyimlar eskirgan va ishlatish uchun yaroqsiz ekanligi ham ma'lum bo'lgan[9].

Moliyaviy qiyinchiliklar va cheklovlar tufayli O'zbekistonda, jumladan, Farg'ona vodiysidagi "Mehribonlik" uylarining moddiy-texnik bazasini yangilashda, yangi asbob-uskunalar, bolalar uchun zarur bo'lgan jihozlarni sotib olishda muammolar yuzaga kelgan. Bu davrda ko'plab bolalar uylariga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar qisqargan, bu esa tabiiyki, tarbiyalanuvchilar uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirib chiqargan. Bu davrga kelib, "Mehribonlik" uylariga faqatgina davlat byudjetidan mablag'lar ajratilgan bo'lib, xayriya mablag'lari mavjud bo'lmagan. Misol uchun, respublikada 1992-yilda 25 ta "Mehribonlik" uylari mavjud bo'lib, ular umumiy maydoni 74374 m² bo'lgan hududni egallagan edi. Shundan yotoqxonalarning umumiy maydoni 23209 m²ni tashkil etgan bo'lsa, mashg'ulot xonalari 17684 m² maydonni o'z ichiga olgan. Shuningdek, 22 ta kutubxona, ulardagi kitoblar soni 143540 ta, 23 ta oshxona, 19 ta ustaxona, xo'jalik ishlari uchun avtotransport vositalari 25 ta, jismoniy tarbiya zali 16 ta, yordamchi xo'jalik 12 tani tashkil etgan. Shundan, Farg'ona vodiysidagi "Mehribonlik" uylariga alohida to'xtalib o'tilsa, Andijon viloyatida 1 ta "Mehribonlik" uyining umumiy maydoni 1125 m²ni tashkil etib, yotoqxona 360 m²ni, mashg'ulot xonalari esa 405 m² maydonni egallagan. Oshxona, ustaxona, avtotransport, yordamchi xo'jalik mavjud bo'lib, kutubxona va jismoniy tarbiya zali mavjud bo'lmagan. Namangan viloyatidagi 26-son "Mehribonlik" uyi 1927 m² maydonni egallab, unda yotoqxona 420 m²ni, mashg'ulot xonasi 420 m²ni tashkil etgan. 1 ta kutubxona mavjud bo'lib, unda jami 3000 dona kitob bor edi. Oshxona, avtotransport, jismoniy tarbiya zali ham mavjud edi. Ustaxona hamda yordamchi xo'jalik mavjud bo'lmagan. Farg'ona viloyatidagi 3 ta "Mehribonlik" uylarining egallab turgan umumiy maydoni 6752 m² bo'lib, yotoqxonalar 2600 m²ni, mashg'ulot xonalari 3100 m²ni egallagan edi. Shuningdek, 4 ta kutubxona va unda 25 000 dona kitoblar bo'lib, 4 ta oshxona, 3 ta ustaxona, 4 ta avtotransport, 1 ta jismoniy tarbiya zali va 1 ta yordamchi xo'jalik mavjud edi[10]. 1993-yilda esa Andijondagi "Mehribonlik" uyining ustaxonasi mavjud emas. Farg'ona viloyatidagi "Mehribonlik" uylarining kutubxonalari, ustaxonalari va avtotransportlar soni bittaga kamaygan, yordamchi xo'jalik soni esa bittaga ortgan[11].

"Mehribonlik" uylari moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ularning sarf-xarajatlarini ta'minlash maqsadida, byudjetdan har yili belgilangan smeta asosida mablag' ajratib kelingan. 1994-yilda O'zbekistonda 24 ta "Mehribonlik" uyi faoliyat yuritgan bo'lib, shundan, Andijon va Namangan viloyatlarida bittadan, Farg'ona viloyatida esa uchta "Mehribonlik" uyi bor edi. Andijon viloyatidagi "Mehribonlik" uyida 94 nafar tarbiyalanuvchi, Namangan viloyati "Mehribonlik" uyida 96 nafar tarbiyalanuvchi, Farg'ona viloyatidagi uchta "Mehribonlik" uyida esa 313 nafar tarbiyalanuvchilar tarbiyalanar edi. Mazkur yilda Andijon viloyatidagi maxsus tipdagi "Mehribonlik" uyiga davlat byudjetidan 1427,6 ming so'm mablag' ajratilgan, Namangan viloyatidagi "Mehribonlik" uyiga davlat byudjetidan 1736,8 ming so'm mablag' ajratilgan, Farg'ona viloyatidagi 3 ta "Mehribonlik" uylariga davlat byudjetidan 2804,2 ming so'm mablag' ajratilgan[12]. Birgina, Andijon viloyatidagi "Mehribonlik" uyiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lardan tashqari, qo'shimcha ravishda boshqa daromadlardan 184,4 ming so'm mablag' kelib tushgan.

O'zbekistonda "Mehribonlik" uylarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun hukumat bir qator muhim bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida

mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish va bolalar uylari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish maqsadida bir qator choralarni ko'rdi. Xususan, davlat "Mehribonlik" uylari binolarining moddiy-texnik holatini yaxshilash uchun ularni ta'mirlash va modernizatsiya qilish ishlarini olib bordi. Bu jarayonda eskirib ketgan "Mehribonlik" uylari ta'mirdan chiqarildi, yangi binolar qurildi, tarbiyalanuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ko'plab "Mehribonlik" uylarida bino va o'quv xonalari va yotoqxonalarining sanitariya-texnik holatini yaxshilash, issiqlik, sovuq suv va elektr energiyasining barqaror ta'minlanishiga alohida e'tibor berildi.

Shuningdek, "Mehribonlik" uylarining moddiy-texnik bazasini yangilash uchun davlat va xususiy sektorlar tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatib kelindi. Shu maqsadda, O'zbekiston hukumati ko'plab tashkilotlar bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'ygan bo'lib, "Mehribonlik" uylari hamda boshqa to'liq davlat qaramog'iga olingan bolalar tarbiyalanadigan muassasalar uchun kerakli bo'lgan uskunalar, asbob-anjomlar, tibbiy jihozlar va tibbiy dori vositalari, shu qatorda, kerakli jihozlarni sotib olish uchun mablag' ajratdi. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va YUNISEF, Xalqaro Qizil Xoch, Qizil yarim oy va shu kabi boshqa yordam tashkilotlari bilan hamkorlikda bolalar uchun zarur bo'lgan jihozlarni taqdim etdi[12].

Respublikada 2000-yildan boshlab, "Mehribonlik" uylarining moddiy-texnik bazasi va ahvoli yaxshilana boshladi. Bu davrga kelganda, O'zbekiston iqtisodiy inqirozlarni ancha yengib o'tgan hamda ijtimoiy sohalarga, ayniqsa, bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning yaxshi tarbiya olishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratdi.

2004-yil 22-yanvarda Andijon shahridagi 2-son "Mehribonlik" uyiga Andijon shahar hokimligidan, shahar moliya bo'limidan, shahar ijtimoiy ta'minot bo'limidan mutasaddilar "Mehribonlik" uyi ish faoliyati, bolalarga yaratilgan shart-sharoitlar, tibbiy xizmat va ta'minot masalalarini ko'rib chiqib, tahlil qilish uchun tashrif buyurganlar. Ular tekshiruv davomida muassasada ta'lim-tarbiya jarayonlarining yo'lga qo'yilishi, tarbiyalanuvchi bolalarning sog'lom o'sishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarning ahvoli, yotoqxonalarining sharoiti, oziq-ovqat va dori vositalari bilan ta'minlanish darajasi, shuningek, bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun madaniy-ma'naviy ishlarining ahvolini o'rgangan. O'rganishlar natijasida, bir qator kamchiliklar ham aniqlangan. Jumladan, "Mehribonlik" uyi hududini obodonlashtirish, asfalt yotqizish, bolalarning yozgi dam olishini tashkil etish, doimiy homiylik qiluvchi tashkilot-muassasani aniqlash, bolalarni sport to'garaklariga jalb etish kabi masalalarga e'tibor berilgan[13].

O'zbekistonda "Mehribonlik" uylarining moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ularning faoliyatini takomillashtirish, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun huquqiy himoya, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash va boshqa zarur bo'lgan birlamchi xizmatlarni yaxshilash maqsadida sohaga oid bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar aynan, davlat qaramog'iga olingan yetim va ota-ona qarovidan mahrum bo'lgan bolalar uchun yaxshilangan muhit yaratish, ularning ijtimoiy moslashishi va kelajakka tayyorlanishiga yaqindan ko'mak berib kelganligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 17-oktyabrdagi "Mehribonlik uyi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VM-230-son qaroriga muvofiq, mazkur muassasaning moddiy-texnik bazasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi belgilangan: zarur binolar va inshootlar, sport maydonchalari va zallari, muhandislik-kommunikatsiya tizimlari, turli xil asbob-uskunalar, transport vositalari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda foydalaniladigan boshqa moddiy vositalar. Nizomda "Mehribonlik" uyi binolari texnika xavfsizligi me'yorlari hamda sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq jihozlanishi va ulardan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanilishi zarurligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Ushbu muassasani moliyaviy jihatdan ta'minlash belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Jumladan, asosiy moliyalashtirish manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisoblanadi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning hamda turli tashkilotlarning ixtiyoriy ehsonlari, maqsadli badallari va amaldagi qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ham mablag'lar jalb etilishi mumkin. "Mehribonlik" uyi faoliyati tegishli moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, moliyalashtirish qonunchilikda belgilangan tartibda

tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar faqatgina mazkur smetada ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha, belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy rioya qilingan holda sarflanishi lozim. Shuningdek, ushbu qarorda "Mehribonlik" uyi qo'shimcha manbalar orqali olingan mablag'larni mustaqil ravishda foydalana olishi" ham belgilab berilgan. Yil oxirida ortib qolgan pul mablag'lari qoldig'i, olingan manbalaridan qat'iy nazar "Mehribonlik" uyi hisobidan olib qo'yilmasligi va bu mablag'larni "Mehribonlik" uyi xohishiga binoan, qonun hujjatlariga muvofiq sarflanishi ham belgilandi. "Mehribonlik" uyining shtat jadvali qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq namunaviy shtatlarga asosan tuziladi va xodimlarning ish haqi qonunlarga muvofiq ravishda belgilanadi. "Mehribonlik" uyi davlat vakolatli organlari tomonidan tasdiqlangan moliya va statistika hisobotlarini olib borishni ta'minlaydi. Moliya-xo'jalik faoliyatiga monitoring o'tkazish va nazorat qilish tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

To'liq davlat ta'minotiga olingan "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilarini kiyim-bosh, poyafzal va zarur anjomlar bilan ta'minlash maqsadida, 2002-yilda 29 turdagi kiyim-kechaklar, 15 turdagi anjomlar va 2 turdagi idish-tovoqlar ajratilgan bo'lsa, 2008-yilda esa tarbiyalanuvchilarga 38 turdagi kiyim-bosh va poyafzallar, 11 turdagi yumshoq jihozlar bilan ta'minlanganlar. Demak ko'rish mumkinki, o'tgan vaqt oralig'ida moddiy jihatdan "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilarining ehtiyojlarini ta'minlashni davlat yildan yilga oshirib borgan.

"Mehribonlik" uyi tarbiyalanuvchilarining sog'lom o'sishlari uchun barcha zarur oziq-ovqat mahsulotlari doimiy ajratib kelingan. Misol uchun, Qo'qondagi 17-son "Mehribonlik" uyiga 2011-yilda 67 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari sotib olingan[14].

"Mehribonlik" uylarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashda bir qator muhim va aniq misollar mavjud. Ba'zi "Mehribonlik" uylarida amalga oshirilgan islohotlar va yangilanishlar, ayniqsa, ularning infratuzilmasini mustahkamlash, qulay sharoitlar yaratish va tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun zaruriy imkoniyatlarni taqdim etishda samarali bo'lgan.

2007-yilda "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturida 2007–2010-yillarda "Mehribonlik" uylarini hamda maxsus maktab-internatlarning texnika bilan jihozlanganlik darajasini oshirish Davlat dasturini ehtiyojlarni oldindan xatlovdan o'tkazish asosida ishlab chiqish va qabul qilish belgilangan bo'lib, unda muassasalarni mukammal ravishda rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, yangidan tasdiqlangan normalarga muvofiq yumshoq mebellar inventarlari, asbob-uskunalar, texnik va yordamchi vositalar, kompyuter sinflari bilan to'liq ta'minlash, 28 ta "Mehribonlik" uyi va 86 ta maktab-internatlarni Samarqand avtobus zavodidan chiqayotgan avtobuslar bilan ta'minlash belgilangan edi. Shu maqsadda, davlat byudjeti hisobidan 9040,2 mln so'm mablag' ajratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, "Mehribonlik" uylarida tarbiyalanayotgan yosh qizlarni maxsus tibbiy tekshiruvdan o'tkazish tartibini joriy etish va muntazam ravishda profilaktik ko'rikdan o'tkazib turish uchun 150,0 mln. so'm ajratilgan hamda ularni zamonaviy shaxsiy gigiyena buyumlari bilan doimiy asosda ta'minlab borish maqsadida, 10,0 mln so'm mablag' yo'naltirilgan. Shu bilan bir qatorda, "Mehribonlik" uylarida tarbiyalanib chiqqan tarbiyalanuvchilar uchun ularni ishga joylashtirish maqsadida potensial korxonalar yaqinidagi hududda oilaviy bloklari bo'lgan yotoqxonalarini tashkil etish hamda mazkur yoshlarning yashashi va mehnat faoliyatini boshlab olishi uchun munosib sharoit yaratish maqsadida 2800,0 mln so'm mablag' ajratish belgilab berilgan[15].

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 2007-yil 25-iyulda Respublika Bosh Prokuraturasi mutasaddilari "Ijtimoiy himoya yili"da "Mehribonlik" uyi bolalariga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish hamda yangi "Mehribonlik" uyi qurish masalasida Andijon viloyatidagi 2-son "Mehribonlik" uyiga tashrif buyurdilar. Tashrif davomida "Mehribonlik" uyi xonalarini, hududini ko'zdan kechirib, mazkur muassasa bolalari uchun yangi bino qurish masalasiga alohida to'xtalib o'tdilar. Shu yili 21-avgustda Andijon viloyat hokimiyati tomonidan "Mehribonlik" uyi tarbiyalanuvchilariga yanada qulaylik yaratish hamda hukumat qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida avtoullov topshirish marosimini o'tkazildi. Shuningdek, 2007-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolari, vodiy dehqonlari fermerlari bilan

birgalikda mazkur “Mehribonlik” uyiga tashrif buyurib, tarbiyalanuvchilar holidan xabar oldilar hamda tarbiyalanuvchilarga pul mablag‘lari berdilar[13].

2008-yilda “Yoshlar yili” Davlat dasturini amalga oshirish Respublika komissiyasi majlisining 2-son bayonidan kelib chiqqan holda, mazkur yil Davlat dasturi tadbirlarining ijrosi yuzasidan tashkiliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasining 24-bandda 2008–2010-yillarda “Mehribonlik” uylari va maxsus maktab-internatlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga doir Davlat dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilandi. 68-bandda yozgi o‘quv oromgohlari tashkil etish rejasi kiritilib, unda “Mehribonlik” uylarining qobiliyatli tarbiyalanuvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirishlari uchun may-iyun oylarida o‘qishga tayyorlash hamda 92-bandda 250 ming bolani yoz faslida, shuningdek, “Mehribonlik” uylaridan 2600 nafar bolani sog‘lomlashtirish maqsadida sanatoriy, oromgoh va bolalar lagerlarida sog‘lomlashtirish rejalashtirildi. 101-bandda Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan “Mehribonlik” uylari birituvchilarini oilaviy turar-joy bilan ta’minlash masalasi ham alohida belgilandi.

4. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, must ijtimoiy sohani izchil rivojlantirib borishga e’tibor qaratib kelmoqda. Xususan, davlatning to‘liq ta’minotiga olingan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tashkil etilgan “Mehribonlik” uylari faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ushbu muassasalar moddiy-texnik axvolini yaxshilashga va ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi. Chunki bolalarning sog‘lom va to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishi uchun ta’lim-tarbiya va yashash sharoitlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan bolalarga shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor berilishi zarur edi. “Mehribonlik” uylari bolalariga boshqa tengdoshlaridan ajratilmagan holda birgalikda ta’lim-tarbiya olishlari, ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, oilaviy muhitdan uzilgan holda ulg‘ayayotgan bolalarda to‘laqonli ijtimoiy moslashuv va psixologik barqarorlikni shakllantirish maqsadida keng imkoniyatlar yaratildi. Ta’lim muassasalariga “Mehribonlik” uyi tarbiyalanuvchilarini jalb qilishning qonuniy asoslari ishlab chiqildi va shu asosda, ularni tashkilotlarga qamrab olish ishlari amalga oshirildi. “Mehribonlik” uylarini hamda maxsus maktab-internatlarning texnika bilan jihozlanganlik darajasini oshirish masalasi Davlat dasturlarida ishlab chiqilgan va qabul qilish belgilangan bo‘lib, unda muassasalarni mukammal ravishda rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, yangidan tasdiqlangan normalarga muvofiq yumshoq mebellar inventarlari, asbob-uskunalar, texnik va yordamchi vositalar, kompyuter sinflari bilan to‘liq ta’minlash ishlari olib borildi.

Iqtiboslar/ Сноски/ References:

1. Prezident “Mehribonlik” uyidagi sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. (“The President reviewed the living and educational conditions at the Mehribonlik Children's Home.”) /<https://president.uz/uz/lists/view/4516>.
2. Рахматуллаев Ш. Мустақиллик йилларида Фарғона водийси шаҳарларида ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар (1991-2006 йй). Тарих фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2006. – 200 б. (Rakhmatullaev, Sh. *Socio-Economic Changes in the Cities of the Fergana Valley in the Years of Independence (1991–2006)*. Dissertation for the Degree of Candidate of Historical Sciences. Tashkent, 2006. 200 p.).
3. Хатамов Т. Ўзбекистон умумтаълим мактаблари таълим ислохотлари тизимида: муаммолар, ечими ва истиқболи (1991-2009 йй.). Тарих фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2010. – 162 б. (Khatamov, T. *General Secondary Schools of Uzbekistan within the Educational Reform System: Problems, Solutions, and Prospects (1991–2009)*. Candidate of Historical Sciences Dissertation. Tashkent, 2010. 162 p.).
4. Топилдиев О. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011 –166 б. (Topildiev, O. *The Place of Youth in the Socio-Political Life of Uzbekistan (1991–2008)*. Candidate of Historical Sciences Dissertation. Tashkent, 2011. 166 p.).

5. Хошимов Ў. Мустақиллик йилларида Фарғона водийси вилоятларида таълим соҳасидаги ўзгаришлар. Тарих фанлари фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 190 б. (Khoshimov, U. *Educational Changes in the Regions of the Fergana Valley during the Years of Independence*. PhD Dissertation in History. Tashkent, 2020. 190 p.).
6. Нурматов А. Ўзбекистон аҳолисини моддий таъминланишининг тарихий таҳлили (Фарғона водийси мисолида 1985-2020 йй). Тарих фанлари фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – 156 б. (Nurmatov, A. *Historical Analysis of the Material Well-Being of the Population of Uzbekistan: The Example of the Fergana Valley (1985–2020)*. PhD Dissertation in History. Tashkent, 2021. 156 p.).
7. О‘з МА М-26-fond, 1-ro‘yxat, 928-yig‘ma jild, 2-varaq. (National Archive of Uzbekistan (NAUz), Fund M-26, List 1, Collection File 928, Folio 2).
8. О‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 17-oktyabrdagi “Mehribonlik uyi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-230-son qarori. (Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. Resolution No. 230 of October 17, 2008, “On Approval of the Regulation on the Mehribonlik Home.” Tashkent, 2008) /<https://lex.uz/docs/1401444>.
9. О‘з МА М-37-fond, 1-ro‘yxat, 237-yig‘ma jild, 6-, 8-, 19-, 21-varaq. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-37, List 1, Collection File 237, folios 6, 8, 19, 21).
10. О‘з МА М-110-fond, 1-ro‘yxat, 342-yig‘ma jild, 1-13-varaqlar. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-110, List 1, Collection File 342, Sheets 1–13).
11. О‘з МА М-26-fond, 1-ro‘yxat, 801-yig‘ma jild, 1-15-varaqlar. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, List 1, Collection File 801, Sheets 1–15).
12. О‘з МА М-26-fond, 1-ro‘yxat, 1197-yig‘ma jild, 1-17-varaqlar. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, List 1, Collection File 1197, Sheets 1–17).
13. Andijon viloyati davlat arxivi 707-fond, 1-ro‘yxat, 25-yig‘ma jild, 1-, 9-10-varaqlar. (Andijan Regional State Archive, Fund 707, List 1, Collection File 25, Sheets 1, 9–10).
14. Farg‘ona viloyati joriy arxivi. Oziq-ovqat mahsulotlari ta‘minoti bo‘yicha oylik hisobot. (ergana Regional Current Archive, Monthly Report on Food Supply Provision).
15. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 23-yanvardagi “Ijtimoiy himoya yili”davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-573-son qarori. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-573 dated January 23, 2007, “On the State Program for the Year of Social Protection.”) /<https://lex.uz/docs/1112866>
16. О‘з МА М-37-fond, 1-ro‘yxat, 2096-yig‘ma jild, 140-, 159-, 174-, 183-, 186-187-varaqlar. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-37, List 1, Collection File 2096, Sheets 140, 159, 174, 183, 186–187).

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000